

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

LINGVISTIKA

2024 Vol. 1 (1)

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Hamidulla Dadaboyev
Bosh muharrir o'rinbosari: Zulxumor Xolmanova
Mas'ul kotib: Dilafroz Muhammadiyeva

Tahrir hay'ati

Baxtiyor Abdushukurov, Samixon Ashirboyev, Sulton Normamatov, Munavvara Qurbonova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Baxronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmonova, Marhabo Umurzoqova, Manzura Shamsiyeva, Zilola Shukurova, Gavhar Komilova, Kamola Rixsiyeva, Iqbol O'razova, Muhabbat Madaminova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Mushtariy Xolmurodova, Nodir Jo'raqo'ziyev.

Jurnal haqida ma'lumot

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

"Lingvistika" Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" jurnalining tilshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta e'lon qilinadi. "Lingvistika" seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning lingvistika yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

"Lingvistika" seriyasi 2021-yil mart oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Hamidulla Dadaboev
Deputy Editor in Chief: Zulkhumor Kholmanova
Executive secretary: Dilafroz Muhammadiyeva

Editorial Committee

Bakhtiyor Abdushukurov, Samikhon Ashirbayev, Sultan Normamatov, Munavvara Kurbanova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Bakhronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmanova, Marhabo Umurzakova, Manzura Shamsiyeva, Zilola Shukurova, Gavhar Komilova, Kamola Rikhsiyeva, Iqbol Urazova, Muhabbat Madaminova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Mushtariy Kholmuradova, Nadir Jorakoziyev.

Journal information

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results. The authors’ ideas may differ from those of the editors’.

“**Linguistics**” is a linguistic series of the journal “Uzbekistan: Language and Culture” which in the list of scientific publications of the High Attestation Commission, published four times a year. The “Linguistics” series publishes linguistic articles by professors, doctoral students, trainee researchers, independent researchers, and masters.

The “Linguistics” series was launched in March 2021.

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Zulxumor Xolmanova

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodidagi frazemalar talqini.....6

Dilrabo Bakhronova, Khurshid Mukhtarov

AGUA: Guadalquivir va gvadiana madaniyatlari va daryolari bo'yicha etimologik sayohat.....19

Nodira Alavutdinova, Laziz Ergashev

“At-tuhfatuz zakiyati fil-lug‘atit turkiya” asari turkologlar e’tirofida.....27

Iroda Azimova

Afaziyani tilshunoslikda o‘rganishning ahamiyati.....35

Muhabbat Madaminova

Sodda gaplarning grammatik pozitsiyasida lingvopragmatik belgilar..53

Mushtariy Xolmuradova

XI asrlar ijtimoiy-siyosiy manzarasini aks ettiruvchi leksemalar tahlili.....69

Dildora To‘rayeva

Shaxsiy yozishmalarda lisoniy va nolisoniy vositalarning lingvistik ekspertizasi.....81

Xilola Uzakova

“Sadoqat” konseptining maqollarda zoonimlar, o‘simlik nomlari, tabiat hodisalari asosidagi timsollar orqali ifodalanishi.....94

Солиха Анорбоева, Нилуфар Сабирова

Современная модель профессиональной компетенции переводчика в контексте системы подготовки переводчиков в вузах.....110

Lobar G‘aniyeva

Davlat boshqaruvi terminlarining genetik tavsifi.....128

Go‘zal Mirzayeva

O‘zbek va turk tillari fonetikasiga doir tadqiqotlar borasida.....138

Dilobar Odilova, Zamira Rahmonova

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida zoonim asosidagi ko‘chimlar tahlili.....150

CONTENT

Linguistics

Zulkhumor Kholmanova

Interpretation of phrases in the work of Zakhiriddin Muhammad Babur.....6

Dilrabo Bakhronova, Khurshid Mukhtarov

AGUA: etymological journey throughout the cultures and rivers gadalquivir and guadiana.....19

Nodira Alavutdinova, Laziz Ergashev

The work "At-tuhfatuz zakiyati fil-lugatit turkiya" is recognized by Turkologists.....27

Iroda Azimova

On the contribution of studies in aphasia to linguistics.....35

Muhabbat Madaminova

In the grammatical position of simple sentences linguopragmatic signs53

Mushtariy Xolmuradova

Analysis of lexemes reflecting the socio-political picture of the 11th century.....69

Dildora Turayeva

Linguistic examination of linguistic and non-linguistic means in personal correspondence.....81

Khilola Uzakova

Expression of the concept of "loyalty" in articles through zoonyms, plant names and symbols based on natural phenomena.....94

Solikhha Anorboyeva, Nilufar Sobirova

Modern model of professional competence of a translator in the context of the system of training translators in universities.....110

Lobar G'aniyeva

Genetic description of public administration terms.....128

Go'zal Mirzayeva

Regarding research on the phonetics of the Uzbek and Turkish languages.....138

Odilova Dilobar, Rakhmonova Zamira

Analysis of metonyms based on zoonym in Yusuf Khos Hajib's work "Kutadgu bilig".....150

O'zbek va turk tillari fonetikasiga doir tadqiqotlar

Go'zal Mirzayeva¹

Abstrakt

Maqolada o'zbek va turk tillarining tovush tizimining o'rganilishi, ulardagi fonetik hodisalarning talqini va qiyosiy tahlilini yoritishga harakat qildik. Shuningdek har ikki tildagi fonetika va fonologiyaga oid terminlar masalasi, tilshunoslarning fonetikaga oid qarashlarini ko'zdan kechirdik.

Kalit so'zlar: *fonetika, fonologiya, fonema, invariant, korrespondensiya, kuchli pozitsiya, kuchsiz pozitsiya, akustika, reduksiya.*

Til millat birligi va borligining belgisi, millat ma'naviy – ma'rifiy taraqqiyotining harakatga keltiruvchi kuchi, tengsiz boyligi, boshqa millatlardan farqlantiruvchi omil hisoblanadi. Til orqali avvalo o'z millatining, qolaversa boshqa millatning tarihi, dunyoqarashi va urf-odatlarini o'rganish mumkin. Har bir tilning qiyosida avvalo fonetika va fonologiya sohasi keng o'rin tutadi. Turkiy tillarni bir-biri bilan qiyoslar ekanmiz, ularning bir-biridan eng farqlanuvchi tomonini tovush tizimi orqali ko'ramiz. Ayniqsa, boshqa turkiy tillar bilan o'zbek tili fonetik-fonologik sathida o'zgachaliklar mavjud bo'lib, buni o'zbek tilining singarmonizmga bo'ysunmasligi va boshqa deyarli barcha turkiy tillarda singarmonizm qonununiyatining mavjudligi bilan izohlash ham mumkin. Ma'lumki, turkiy tillar tasnifiga ko'ra o'zbek tili qarluq guruhiga, turk tili esa o'g'uz guruhiga mansub bo'lsa-da, bu tillarning ayni paytdagi holatlarini, ayniqsa, fonetik va grammatik sathdagi hozirgi xususiyatlarini o'rganish, mazkur tillar taraqqiyoti qonuniyatlarini aniqlashtirish zarur. Shu maqsadda o'zbek va turk tillari taraqqiyotidagi grammatik, leksik-semantik o'zgarishlar keyingi yillarda qator tadqiqotlar obyekt sifatida o'rganildi (Usmonova 1998; Xudayberganova 1999; Siddiqov 2000; Chetin 2002; Shabanov 2004; Abdurahmonova 2004).

O'zbek tilshunosligida fonetika va fonologiya bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ulardan A.G'ulomov, H.Abdurahmonov, A.Abduazizov, H.Jamolxonov, J.Mamatovlarning asarlari ayniqsa

¹ *Mirzayeva Go'zal Qobuljonovna* – ToshDO'TAU tayanch doktoranti.

E-mail: ummuabduannon@gmail.com.

Iqtibos uchun: Go'zal Mirzayeva. O'zbek va turk tillari fonetikasiga doir tadqiqotlar. *O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika.* 2024-1: 138-149.

diqqatga sazovor (G'ulomov 1947; Abdurahmonov 1963; Abduazizov 1992; Jamolxonov 1999; Mamatov 2009).

Ma'lumki, fanlarning uzviy aloqasi ilmning doimiy talablardan biri hisoblanadi. Xususan, S.Otamirzayeva o'z tadqiqotlarida fonetika va tibbiyot sohalarini bog'lab o'rgandi (Otamirzayeva 1990). Turkolog olim E.V.Sevortyaning asarlarida ham qiyosiy fonetikaga oid ba'zi fikrlar mavjud (Sevortyan 1955).

O'zbek tili jahondagi eng yirik turkiy tillardan biridir. O'zbek tili fonetikasi va fonologiyasi shu tilning adabiy talaffuzi va til madaniyati bilan uzviy bog'liqdir. O'zbek tilshunosligining hozirgi davrda qo'lga kiritayotgan katta yutuqlari bilan birga, hali ilmiy tadqiq etilmagan birmuncha sohalari mavjud. Jumladan, fonetika va fonologiyaning qiyosiy aspektda tadqiq qilinmaganligi, tovush o'zgarishlarining keltirib chiqaruvchi sabablari sifatida neyrolingvistika sohasi ishlanmaganligini e'tirof etish mumkin.

Turkiy tillar fonetikasi va fonologiyasining tarixiga nazar tashlasak, ko'plab ilmiy qarashlar qadimdan mavjudligini anglab yetamiz. Masalan, buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy bizdan necha asrlar ilgari tillarni fonologik jihatdan qiyosiy aspektda o'rganadi, hind tili bilan arab tili fonologik tizimida katta tafovut borligini bayon qilib, hind so'zlarini arab tilida berishda bir qadar qiyinchilik borligini aytadi. (Абу Райхон Беруни 1974, 41-43).

Ana shu qiyinchilikni bartaraf etish maqsadida arab alfavitiga bir qator o'zgarishlar kiritadi. Qisman forslardan foydalangan holda to'rtta (p, ch, j, g) harfni qo'shadi. Bundan tashqari forslarda so'z boshida b va v fonemalarining o'zaro erkin almashinishi mumkinligiga diqqatni jalb etadi va ana shu almashinish asosida ayrim so'zlarning kelib chiqishi haqida fikr yuritadi. Masalan, o'n ikkinchi maqola Abhalga bag'ishlanadi. U rumcha barutanun va barutun, suryoniycha barusa, forscha burs va vurs, zabolcha vurs gunda deb nomlanishini ta'kidlagan holda, fors tilida b-v fonemalarining talaffuzi bir-biriga yaqin ekanligi, shuning uchun ko'pincha ular bir-biri bilan oson almashinishini aytadi (Beruniy 1974). Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Beruniyning yuqorida keltirilgan fikrlari distributsiya hodisasining erkin almashinish turi haqida ketmoqda, demak distributsiya hodisasi aslida IX-X asrlarda allomamiz tomonidan tadqiq etilgan.

Abu Ali Ibn Sinoning fonetika haqidagi qarashlari uning "Asbob" asarida o'z ifodasini topgan. Garchi bu asar arab tili fonetikasiga bag'ishlangan bo'lsa ham, lekin ko'p o'rinlarda, ayniqsa, V bobida fors, turk va boshqa tillar materiallari ham qo'llaniladi. Shuning uchun ham Ibn Sinoning mazkur asari boshqa asarlardan fonetika

masalalarini yoritishga bag'ishlanganligi bilan ajralib turadi. "Asbob" asari arab tilshunosligi an'anasidan yana shunisi bilan farqlanadiki, unda fonetik o'zgarishlar masalasi ko'rilmaydi, tovushlarning fiziologik va akustik xususiyatlari o'rganiladi. Asarda artikulyatsiya tomonidan yaqin bo'lgan va akustik belgisiga ko'ra farqlanuvchi undoshlar o'zaro zidlangan holda o'xshash va farqli belgilari ochiladi. Masalan, k-g, q-g' kabi. Bu shuni ko'rsatadiki, N.S.Trubetskoydan bir necha asrlar oldin Markaziy Osiyo filologlari tomonidan korrelyativ undoshlar ajratilgan va undosh fonemalarni belgilashda asosiy tamoyil sifatida foydalanilgan.

Ibn Sino asarida yana bevosita kuzatishda, turli o'zgarishlar bilan talaffuz qilinuvchi variant bilan bu variantning abstrakt bosqichdagi umumlashmasi (invarianti) farqlanadi. Xususan, r-r', l-l' tovushlari bir umumiylikning ikki xil ko'rinishi ekanligini bayon qiladi. Bu esa distributsiyaning kontrast turida voqelanuvchi tovushlar o'zgarishiga oid hodisadir. Ibn Sino o'z risolasini quyidagi boblarga bo'lib izohlaydi:

Tovushning paydo bo'lish sabablari haqida;

Nutq tovushlarining paydo bo'lish sabablari haqida;

Bo'g'iz va tilning anatomiyasi haqida;

Ayrim arab tovushlarining paydo bo'lishidagi o'ziga xos xususiyatlari haqida;

Bu tovushlarga o'xshash nutq tovushlari haqida;

Bu tovushlarning nutqiy bo'lmagan harakatlarda eshutilishi (Ibn Sino 1979).

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida ilk bor turkiy tillar fonetikasi qiyosiy aspektida tadqiq etildi. Ushbu asarda o'g'uz va qipchoq qabilalari talaffuzidagi fonetik tafovut ko'rsatilgan. Jumladan, fonetik jihatdan so'z boshidagi "y" o'g'uzlarda va qipchoqlarda "j" bilan almashinuvi misollar orqali ko'rsatilgan:

Turklar: O'g'uzlar va qipchoqlar

Yelkin(musofir) elkin

Yinju (marvarid) jinju

Yug'du (tuyaning uzun juni) jug'du

Mahmud Koshg'ariy fonemalarning nutq jarayonida xilma xil variantlarga ega bo'lishi, shuningdek, turli fonetik hodisalar haqida ma'lumot beradi. Jumladan, ishbo' (tovushlarni qattiq va qalin talaffuz qilish), imola (tovushlarni cho'zib talaffuz qilish), ishmom (tovushlarni yumshoq yoki ingichka talaffuz qilish), g'unaning ikki ko'rinishi (ng, ng'), hayshum (nazalizatsiya), ikki undoshning qator kelishi (geminatsiya),

tovush almashinishi (metateza), assimilyatsiya, dissimilyatsiya, tovush tushishi va tovush orttirilishi haqida fikr yuritadi (Mahmud Koshg'ariy 1960).

XIX asrda Boduen de Kurtene korrespondensiya deb ajratgan fonetik hodisa haqida Mahmud Koshg'ariy XI asrlardayoq ma'lumot bergan ya'ni turklar bilan o'g'uz va qipchoqlar o'rtasida m-b(menben, mun-bun"sho'rva"), t-d (teve-deve"tuya") kabi fonetik moslik borligini ham ko'rsatgan (Boduen de Kurtene 1963).

Fonetika-fonologiya sohasining har bir jabhasiga to'htalar ekanmiz, Trubetskoyning nazariyalarini keltirmasdan ilojimiz yo'q. N.S.Trubetskoy o'zining "Основы фонологии" asari orqali fonologiyani keng tadqiq etdi. Olim tovushlar klassifikatsiyasini berar ekan, har bir tovushning ikki, uch, to'rt varianti va oppozitsiyasini keltiradi. Masalan, b-p, g-k, d-t kabi. U tovushlarning oppozitiv holatlarini to'rt turga bo'lib asoslaydi. Trubetskoy tovushlarning pozitsiyasini ularning distributiv holati bilan bog'laydi:

kuchli pozitsiyadagi tovush so'zga hech qanday qo'shimcha qo'shilmay turib, o'zakning bir-biridan bir tovushga farq qilishidir: cam-com;

kuchsiz pozitsiyadagi tovush esa uning aksi, ya'ni o'zakka qo'shimcha qo'shilgach, undagi tovushlarning urg'u orqali farqlanishi: coma-sama, noqa-naqa, rok-rod kabi.

Turkiy tillarda so'zlar dastlab bir bo'g'inli bo'lgan (Shoabdu-rahmonov; Ishayev 1982). Ayrim so'zlarning asta-sekin affiksga o'tishi, ko'p bo'g'inli so'zlarning yuzaga kelishi bilan affiks va o'zakni o'zaro birlashtiruvchi prosodik imkoniyatlar yuzaga kela boshladi.

Bu imkoniyatlarning biri so'z urg'usi edi. Natijada urg'u tushgan bo'g'indagi tovushlar akustik tomondan kuchli, urg'u tushmagan bo'g'indagilar esa nisbatan kuchsiz bo'lib boradi (Mamatov 1988).

Urg'uning unlilar sirtiga ta'siri juda kuchli (G'ulomov 1947).

So'zda urg'uli bo'g'inning unlisi kuchli va aniq, uzunroq talaffuz qilinib, o'z borlig'ini to'la saqlab qoladi (Malov 1951). Urg'uli bo'g'indagi unli urg'usiz bo'g'indagidan akustik ustunligi, ovozning balandligi, kuchli intensivligi va miqdor jihatdan uzunligi bilan namoyon bo'ladi. Urg'usiz bo'g'indagi unli esa kuchsiz, ya'ni intensivlikda va miqdor tomondan qisqaroq talaffuz qilinadi. Shuning uchun ham urg'usiz, ya'ni akustik tomondan kuchsiz bo'lgan bo'g'in unlisi reduksiyaga uchray boshladi. Demak, turkiy tillarda reduksiyani keltirib chiqaruvchi asosiy omillardan biri, ko'p bo'g'inli so'zlarning yuzaga kelishi va buning natijasida so'z urg'usining paydo bo'lishidir. Boshqacha qilib aytganda, reduksiyani yuzaga keltirgan hodisa so'zda

bo'g'inlar sonining o'zgarishidir. Shunday qilib, yuzaki qaraganda oddiygina bo'lib ko'ringan unlilar reduksiyasi til taraqqiyotining tarixiy jarayonida yuzaga kelgan fonetik hodisadir. Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi to'la, bolta, so'ngal, so'gal kabi so'zlar "Devoni lug'otit turk" da tolu, boldu, so'nuk, so'g'ul tarzida yozilgan. Bu so'zlarda nima uchun reduksiya yuz bermaganining, aksincha, unli kengayganining sababi noma'lum. Ehtimol, qoshg'ar shevasiga xos ko'ngil > kunal, qo'shiq>qo'shaq modelidagi unlilar dissimilyatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan holatdir. O'zbek tilida lab singarmonizmining yo'qola borishi bilan urg'u ta'siri kuchayishi o'laroq lablangan u unlisi o'rni-ga a (keng unli) qo'llana boshlagan bo'lishi, ya'ni bu unlining urg'u ushlab qolgan bo'lishi mumkin. Bu ham o'zbek adabiy tilida singarmonizm hodisasi yo'qola boshlaganidan va so'z urg'usi pozitsiyasining kuchayib borganidan dalolat beradi (Mamatov 1988).

Ma'lumki, turkiy tillarning bir-biridan asosiy farqli jihatlari fonetik sathda yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Avvalo, tilning har bir sathi o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etishini inkor qilmagan holda, fonetik va fonologik sath tilning asosini tashkil etuvchi sathlarlar ekani ta'kidashimiz lozim. Chunki so'z tovushlardan tashkil topadi. So'nggi yillarda tillarning sathlarini qiyosiy aspektda o'rganishga katta ahamiyat berila boshlandi.

Bizning ham tadqiq qilishni maqsad qilgan obyektimiz ikki – turk va o'zbek tillarining fonetik sathi bo'lib, avvalo turk tilshunoslarining bu borada olib borgan tadqiqotlarini ko'rib chiqishni to'g'ri deb bildik.

Turk tilshunosligida fonetikaga oid ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Birinchi navbatda qayd qilish kerakki, tilshunoslikdagi har bir sathning bosh masalasi undagi terminlar masalasidir. Turk tilshunosligidagi terminlarda milliylik aks etib turadi. S.Topbash va H.Kapkallilarning "Sesbilim" ve "Sesbilgisi" Terimlari Őzerine" maqolasida turk tili fonekasi va fonologiyasiga oid terminlar hususida kichik tadqiqot olib borilgan. (Topbas; Kopkalli 1994, 310–321). Maqolada turk tilshunoslari tomonidan fonetika va fonologiya terminlarining bir-biriga qorishtirib yuborilayotgani va natijada xatoliklar yuzaga kelayotgani hususida so'z boradi. Bu terminlarning qorishtirib qo'llanishiga sabab ularning turk adabiy tilga moslangani va buning oqibatida ular o'rtasida bevosita o'xshashlik mavjudligidir. Maqola mualliflari bir guruh turk tilshunoslari fonetikani "Sesbilim" termini bilan; fonologiyani esa "Sesbilgisi" yoki "görevsel/gelishmeli sesbilim" terminlari bilan qo'llaganlarini aytib o'tadilar (masalan, Selen, Demirjan, Aksan, Konrot, Topbash kabilar).

Boshqa bir guruh tilshunoslar esa, aksincha, fonetika atamasini “Sesbilgisi” va fonologiya atamasini “Sesbilim” deb qoʻllaganini (masalan, Vardar, Demirezen) qayd etadilar.

Bundan koʻrish mumkinki, S.Topbash va H.Kapkallilarning mana shu kichik tadqiqotiga qadar turk tilshunosligida fonetika va fonologiya terminlarini qoʻllashda chalkashlik mavjud boʻlgan va maqola ikki terminni tartibga solishda katta ahamiyat kasb etgan. Shundan soʻng bu ikki tilshunos “Sesbilim”ning fonetika va “Sesbilgisi”ning fonologiya ekanini va bu ikki terminning bir-biridan farqli jihatlarini, oʻrganish obyektini asoslab berganlar. Maqolada sath tarmoqlarining tarixiga ham toʻxtalangan va gʻarb tilshunoslari tomonidan ilgari surilgan qarashlarni keltirib oʻtganlar.

E.V. Sevortyaning “Fonetika turetskogo literaturnogo yazыka” nomli asarida esa turk tilining fonetik tizimi juda keng tadqiq etilgan, bu asarda nafaqat fonetika, balki turk tilidagi fonetik tovush oʻzgarishlari ham misollar asosida keng yoritilgan. Masalan, u turk tilidagi reduksiya hodisasi haqida gapirib, bunda “i” harfining yopiq “ı” yoki “e” ga oʻtishini taʼkidlaydi va quyidagi misollarni keltiradi:

yani yan i/e, belki belki/e, haydi hayd i/e, artık art i/k.
(Севортян 1955, 80–83).

Tilshunos E.Demirjan “Türkçenin ses dizimi” asarida turk tiliniing tovush tizimini tahlil qiladi (Demir 2019).

R.Oʻzdem “Tarihsel bakimdan öztürkçe ve yabancı sözlere fonetik ayrıçları” asarida turkiy tillarning etimologiyasini oʻrganib, chet tillaridan oʻzlashgan soʻzlarni fonetik jihatdan ajratish usullarini tahlil qilib beradi. Tilshunoslar Z.Koʻrkmaz va H.Zulfikarlar esa “Turk Dili ve Kompozisyon” asarida turk tilidagi fonetik tovush oʻzgarishlarini oʻrganadilar va bunga asosan urgʻu sabab boʻlishini misollar orqali koʻrsatib beradilar. Tilshunos Tahir Nejat Genjan oʻzining “Dilbilgisi” asarida turk tilidagi undoshlar tizimini, ulardagi singarmonizm hodisalarini jadvallar asosida yoritib, asoslab bergan.

N.Demirning 2019-yilda chop qilingan “Türkçe ses ve biçim bilgisi” (Turk tili fonetikasi va morfologiyasi) asari horijiy mamlakatlardagi Turkologiya fakultetlari uchun tayyorlangan boʻlib, tilshunos termin masalasida faqat turkchallashtirish tarafdori boʻlgani holda, atamalarni chet soʻzlardan emas faqat turkcha soʻzlar yordamida ifodalaydi. Kitob chet el talabalariga tushunarli boʻlishi uchun sodda tarzda yozilgan, shuningdek unda turk tilining tarixiy lahjalari xususida ham soʻz yuritilgan. (Demir 2019).

Tilshunos Mustafo Oʻzkanning “Türkiye Türkçesi Ses ve Yazım

Bilgisi” asarida olim turk tili fonetikasiga oid juda keng ma'lumot bergan. Tilshunos bu asarni turkum holda nashr qilishni maqsad qilgan bo'lib, asar o'n bir bo'limdan iborat. Birinchi bo'limda tillarning paydo bo'lishi, ularning nomlanishi va dunyo tillari haqida so'z ketadi. Beshinchi bo'limda tilshunos turk tili va uning tovush tizimi – unlilar, undoshlar, tovush o'zgarishlari, ularning sabablari hamda alifbosiga batafsil to'xtaladi. (Özkan, 331).

Shu o'rinda tilshunoslikning tarixiga ham biroz nazar solsak. Suad Mahmud Alvanning “Ali Shir Nevai Muhakemetül-lugateyn Eserinin Sesbilimi Özellikleri” maqolasida ulug' mutafakkir va shoir Alisher Navoiyning “Muhokamatul lug'atayn” asaridagi fonetik jarayonlar tahlil qilingan (Alvan).

Ma'lumki, bu asar qiyosiy tilshunoslikning yorqin namunalari bo'lib, unda turk va fors tillari o'zaro chog'ishtirilgan bo'lib, o'n beshinchi asrda barcha ijodkorlar ijod qilgan va gullab yashnagan til fors tilidan turk tilining qolishmasligini adib isbot qilib bergan. Asarda tilshunoslikning turli sathlariga oid ma'lumotlar o'rin olgan bo'lib, hozirda leksik lakuna termini bilan tilshunoslikda o'rganilayotgan sohani Navoiy shu asarida aytib o'tgan, masalan fors tilida qovoq so'zi leksik lakuna bo'lib, unga ishlatiladigan biror ifoda yo'qligini, biroq turk tilida esa ko'z bilan qoshning orasi qovoq deb atalishi aytilgan. Endi mavzuyimizga qaytadigan bo'lsak, maqolada tilshunos shunday deydi: “Bu asarida Navoiy bir tarafdin turk tilining fors tilidan ustunligini isbot qilishga urinar ekan, ikkinchi tarafdin o'z tilining (ya'ni turkiy tilning) fonetik va morfologik xususiyatlarini ko'rsatib o'tgan”. Maqolada Navoiyning hayoti va asarlari haqida ma'lumot keltirilib (turklarga tanitish maqsadida), so'ng asosiy maqsad bo'lgan unlilar tizimi haqida ma'lumot beriladi. Chig'atoy tilida to'qqizta unli mavjud ekanini aytib, o'sha vaqtdagi unlilar hozirgi turk tilidagi unlilar tizimi bilan qiyos qilinadi. Shundan so'ng tovush o'zgarishlari haqida ma'lumot berilib, singarmonizm sabab vujudga kelgan qo'shimchalarning unlilardagi variantlari beriladi. So'ng esa undoshlarga to'xtalinib, qiyosiy aspektda o'rganiladi va bunda ham undoshlarning o'zgarishlari va singarmonizmi haqida ma'lumot beriladi. Tilshunos xulosa sifatida Alisher Navoiyning asarida qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi xususiyatlari bilan birga qisman qipchoq shevalari ham mavjud ekanini ta'kidlaydi. Ulug' mutafakkirlarimizning asarlarini o'zga yurtda tadqiq qilinishi, albatta biz tilshunoslarni mamnun qiladigan holatdir.

Asli Yilmaz Davuto'g'lining “Standart Türkçedeki Ünlülerin Akustik Analizi Ve Fonetik Altyapı” nomli katta asari adabiy turk

tilidagi unli tovushlarning akustik analizi va fonetik sutrukturasiga bag'ishlangan. Asarni turk tili fonetikasining haqiqiy eksperimental tadqiqoti deb atash mumkin. Tilshunos adabiy turk tilidagi unlilarning allofonlarini tadqiq qilish jarayonida 875 ta so'zni sakkizta respondentga talaffuz qildiradi va eksperiment qiladi. Tadqiqot statistikasiga ko'ra bir-biridan farq qiluvchi 21 allofonlar guruhi va ularga oid 10 ta uzun unli topilgan. Allofonlar o'rin olgan tovush tizimlari so'zlar orqali misollar bilan berilgan. Tilshunos har bir unli tovushga keng to'xtalib, masalan "a" fonemasining o'zida uchta allofon aniqlanganini misollar orqali keltirib o'tadi: a1, a2, va a3. "Bulardan tashqari a1 va a2 guruhlarining uzun turlari a11 va a22) bordir, – deydi tilshunos va misollar keltirib o'tadi, "a1: ochiq, orqa, tor. "ova, muaf, avuntu, ala, mal, ag'ustos, azar, vasat, hala, ahır, ahbap, falaka" kabi so'zlarda. ("a" tovushi kundalik qo'llanganda qalin "a" sifatida keladi). So'z o'rtasidagi "a" fonemasining, xususan "b", "p", "v" kabi lab undoshlaridan va "h"dan keyin kelganda a1 sifatida qo'llanishi kuzatildi". (Davutoğlu 2010).

Tilshunos Ijlal Ergenchning "Sesbilim Çalishmalari" haqidagi ochiq dars ko'rinishidagi tadqiqotida turk tili fonetikasiga doir izlanishlar jadval asosida yoritib beriladi. Shuningdek, u Tilshunos Najib Uchokning, O'zkan Bashkanning, Nevin Selinning va O'mer Demirjanning tadqiqotlarini o'z asarida sxemalar asosida yoritadi va tahlil qiladi. (Ergenç)

Bundan tashqari Huseyin Kahraman Mutlu turk tili fonetikasiga doir olib borilgan tadqiqotlar bibliografiyasini tuzib, jurnalda chop etgan (Mutlu, 373–382).

So'nggi paytlarda neyrolingvistika sohasi tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatida vujudga kelib, unda ko'plab tadqiqotlar olib borila boshlandi. Biroq, fikrimizcha neyrolingvistikani fonetikaga doir jihatlari ko'p, chunki fonetik jarayonlar va tovush o'zgarishlariga neyrolingvistik omillar o'zining ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Turk tilida neyrolingvistikaga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, professor D.Barishning "Dil ve Beyin" (Til va miya, Bolalarda til va nutq nuqsonlari) asarida bu mavzu keng yoritilgan. Asarda, avvalo odatiy til va tilning rivojlanishi keltiriladi. Bolalardagi eshitish qobiliyatining nutqqa ta'siri, nutq xususiyatlari va nuqsonlari batafsil yoritilib, nevrologik hastaliklarga urg'u beriladi. Tadqiqotning ahamiyatli tomoni shundaki, unda inson nutqi va hayvon nutqi orasidagi o'xshashlik va farqli jihatlar keltiriladi, inson tili va genlar orasidagi aloqa yoritib beriladi, so'ng esa til va miyaning o'zaro bog'liqligi ochiqlanadi. Bolaning tilni o'rganishidan boshlab,

uning nutqidagi nuqsonlarning paydo bo'lish omillari ko'rsatib beriladi. Asarni o'qib-o'rganib til bilan tibbiyot shunchalik bir-biriga bog'liqligini, ularni bir-biridan ajratib bo'lmasligini anglash mumkin. Shu sabab bu ikki fanni o'zaro bog'lovchi neyrolingvistika sohasi vujudga keldi. Bunda esa tilshunoslardan ikkita soha – ham tibbiyot ham tilshunoslikni chuqur bilish talab qilinadi. Bu jarayonlar esa asosan fonetik sathda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Endi yana o'z tadqiqotimiz – turk tilshunoslarining fonetikaga doir ishlariga qaytsak. Yuqorida qayd etilgan mavzular turk tilshunosligida ko'plab ilmiy izlanishlarga sabab bo'la boshladi. Tilshunoslar nutqdagi nuqsonlar, tovushlarning o'zgarishlariga olib keladigan jarayonlarni chuqur o'rganish asnosida ko'plab ilmiy yangiliklarni ilmga olib kirdilar.

I.P.Bekar tomonidan yozilgan “Shizofrenlerin Sözlü Metinlerinde Duygudurum Görünümleri”, S.Ay va boshqalar tomonidan yozilgan “Türkçede gelişimsel disleksinin sesbilimsel ve biçimbilimsel görünümleri”, E.Esmar tomonidan yozilgan “Shizofrenlerin sözlü anlatım metinlerinin çözümlenmesi”, M.S.Erer “Karma Soz Uretme Yontemi ile Turkche Yazılı Metinden Soze Gechme” asarlarida nutq nuqsonlari ma'lum kasalliklar, xususan shizofreniya asosida tadqiq qilindi.

Ayja O'zbel Kochning “Septum deviasyonlu hastaların septoplasti operasyonu öncesı ve sonrası, akustik ses analizi ile deg'lendirilmesi” asarida rinolali (nazal disfoni, rinofon (nazalning grekcha nomi) nazal rezonansining buzilishi natijasida yuzaga keluvchi nutq patologiyasi o'rganildi.

Maqolada tadqiqotlarni imkon qadar muhimlarini taqdim etishga harakat qildik. Xulosa qilib aytganda, o'zbek va turk tili fonetikasiga doir ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, yuqorida keltirilganidek, turk tilshunosligida o'zbek tilshunosligidan farqli o'laroq birinchi galda termin masalasi munozarali holatdadir. Turk tili fonetikasi o'zga yurt tilshunoslari tomonidan ham keng tadqiq qilingan. Turk tilida eksperimental fonetika rivoj topgan, shu sabab amaliy ishlar ko'p deyish mumkin. O'zbek tilshunosligida eksperimental fonetikada o'rganilishi kerak bo'lgan masalalar hali ko'p.

Adabiyotlar

- G'ulomov A. (1947). O'zbek tilida urg'u. –Toshkent, “SAGU”.
Abdurahmonov H. (1963). O'zbek fonetikasi tarixidan // O'zTA,
Abduazizov A. (1992). O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent.
Jamolxonov H. (1999). Fonetika. Ma'ruzalar matni. – T: TDPU bosma-

xonasi.

Mamatov J. (2009). O'zbek tilida reduksiya. Filol.fan.nomz. – Toshkent.

Abu Rayxon Beruni. (1974). Избранные произведения. Том II. – Ташкент.

Abu Ali Ibn Sino. (1979). Fonetika haqida risola. –Toshkent, Nashrga tayorlovchilar: A.Mahmudov, Q.Mahmudov.

Mahmud Koshg'ariy. (1960-1963). Devonu lu'atit turk. I-II tomlar. – Toshkent.

Boduen de Kurtene I.A. (1963). Избранные труды по общему языкознанию. – Москва.

N.A. (1959). Каракалпакский язык. Т. II. 1. –М.

Шоабдурахмонов Ш. Ишаев А. (1982). Об одном фонетическом явлении. Опыт экспериментального и структурного изучения языка – Tashkent.

Малов С.Е. (1951). Памятники древнетюркской письменности – М.

Ne'matov Q. (1992). O'zbek tili tarixiy fonetikasi. Toshkent. O'qituvchi.

Özdem R. (1939). Tarihsel bakimdan öztürkçe ve yabancı sözlere fonetik açıları. İstanbul: Universitet yayınlar – I.

Orhun Anıtları üzerinden araştırmalar. <http://www.turkdilidergisi.com/>.

Севортян Е.В. (1955). Фонетика турецкого литературного языка. – Москва.

Kokrmaz. Z., Zulfikar H. (2005). v.b. Turk Dili ve Kompozisyon – Ankara.

Hojiyev A. (1985). Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi.

Topbaş.S. Koptallı H., (1994). “Sesbilim” ve “Sesbilgisi” Terimleri Uzerine”. Dilbilim araştırmaları, – Anadolu Universitesi.

Muharrem Ergin. (1985). Turk Dil Bilgisi, Boğazici, Yayınları – İstanbul.

Suer E. (2002). Çağdaş Turk Dili. Grafiker Yayınları – Ankara.

Demir N. (2019). Ses Bilgisi ve Biçim Bilgisi. Hamur Tipi : 2. Hamur. İlk Baskı Yılı.

Özkan M. Türkiye Türkçesi Ses ve Yazım Bilgisi. İstanbul, Filiz Kitabevi.

Alvan S.M. “Ali Şir Nevai Muhakemetül-lugateyn Eserinin Sesbilimi Özellikleri”<https://docplayer.biz.tr/>.

Davutoğlu A.Y., (2010). “Standart Türkçedeki Ünlülerin Akustik Analizi Ve Fonetik Altyapı” – İstanbul.

Ergenç I., Sesbilim Çalışmaları. <https://acikders.ankara.edu.tr/>.

Mutlu H.K.“Türkiye Türkçesi Ses Bilgisi Üzerine Bir Bibliyografiya Denemesi”, Türk Dünyası İncelemeleri Dergisi, 6 (2) .

Regarding research on the phonetics of the Uzbek and Turkish languages

Go'zal Mirzayeva¹

Abstract

In the article, we tried to highlight the study of the sound system of the Uzbek and Turkish languages, the interpretation and comparative analysis of phonetic phenomena in them. We also looked at the issue of terms related to phonetics and phonology in both languages, and the views of linguists on phonetics.

Key words: *Phonetics, phonology, phoneme, invariant, correspondence, strong position, weak position, acoustics, reduction.*

References

- Ghulomov A. (1947). Accent in the Uzbek language. –Tashkent, “SAGU”.
- Abdurahmanov H. (1963). From the history of Uzbek phonetics // UzTA, #2.
- Abduazizov A. (1992). Phonology and morphonology of the Uzbek language. – Tashkent.
- Jamol Khanov H. Phonetics. (1999). Text of lectures. TDPU printing house, – T.
- Mamatov J. (2009). Reduction in the Uzbek language. Philol.fan.nomz. – Tashkent.
- Abu Raikhan Beruniy. (1974). Selected works. Volume I. – Tashkent.
- Abu Ali Ibn Sina. (1979). A treatise on phonetics. Preparers for publication: A. Mahmudov, Q. Mahmudov. –Tashkent.
- Mahmud Koshgari. (1960-1963). Devanu lug'atit Turk. Roofs I-II. – Tashkent.
- I. Baudouin de Courtenay I.A. (1963) Selected works on general linguistics. – Moscow.
- N.A. (1959). Karakalpak language. T. II. 1. –M.
- Shoubdurakhmonov Sh., Ishaev A. (1982). About one phonetic phenomenon. Experience experimental and structural language learning. Tashkent.
- Malov S.E. (1951). Monuments of ancient Turkic writing. –M.
- Nematov K. (1992). Historical phonetics of the Uzbek language. Tashkent. Teacher.
- Özdem R. (1939) Phonetic differences of Turkish and foreign words from

¹ *Mirzayeva Guzal Qobuljonovna* – Doctoral student at TSUULL named after Alisher Navoi.

E-mail: ummuabduannon@gmail.com.

For reference: Guzal Mirzayeva. Regarding research on the phonetics of the Uzbek and Turkish languages. *Uzbekistan: language and culture. Linguistics.* 2024-1: 138-149.

- a historical point of view. Istanbul: University publications, I. Research on Orhun Monuments. <http://www.turkdilidergisi.com/>.
- Sevortyan E.V. (1955). Phonetics of the Turkish literary language. – Moscow.
- Kokrmaz. Z., Zulfikar H. etc. (2005). Turkish Language and Composition – Ankara.
- Hajiyev A. (1985). Explanatory dictionary of linguistic terms. –T.: Teacher.
- Topbaş.S., Kopkallı H. (1994). On the Terms «Phonology» and «Phonology». Linguistic research, Anadolu University.
- Muharrem Ergin (1985). Turkish Grammar, Boğazici, Publications, Istanbul, 16th Edition.
- Suer E. (2002). Contemporary Turkish Language. Graphics Publications. Ankara.
- Demir N. (2019). Sound Knowledge and Form Knowledge. Dough Type: 2. Dough. First Edition Year.
- Özkan M. Türkiye Turkish Vocabulary and Writing Knowledge. Istanbul, Filiz Kitabevi 331.
- Alvan S.M. «Phonetik Features of Alishir Nevai Muhakemetül-lugateyn Work» <https://docplayer.biz.tr/>
- Davutoğlu (2010). A.Y., «Acoustic Analysis and Phonetic Background of Celebrities in Standard Turkish». – Istanbul.
- Ergenç I., Phonology Studies. <https://acikders.ankara.edu.tr/>
- Mutlu H.K. “A Bibliography Essay on Turkish Phonology”, Journal of Turkish World Studies, 6 (2).